



ЭКОЛОГИЯ, АТРОФ-МУХИТНИ МУХОФА-
ЗА ҚИЛИШ ВА ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ВАЗИРЛИГИ



МАРКАЗИЙ ОСИЁ АТРОФ-МУХИТ ВА ИҚЛИМ
ЎЗГАРИШИНИ ЎРГАНИШ УНИВЕРСИТЕТИ (GREEN
UNIVERSITY)



ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ИЛМИЙ-
ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ

ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ



“O‘ZBEKISTONDA CHO‘LLANISH
MUAMMOLARI VA ULARNING
YECHIMLARI” MAVZUSIDA
XALQARO MIQYOSIDAGI
ILMIY-TEXNIK ANJUMANI

17 oktabr 2024 yil,
Toshkent viloyati, Toshkent tumani



MAQOLALAR
TO‘PLAMI

www.urmon.uz

Мақолалар тўплами 2024 йил 17 октябр куни Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институтида бўлиб ўтган халқаро илмий-амалий конференция материалларидан тайёрланган.

Тайёрланган материалларда Республиканинг тупроқ-иқлим шароитларида инновацион технологиялар асосида қурғоқчилик чўлланишга ва сувсизликка чидамли бўлган ноёб турдаги манзарали ўрмон ўсимликлар кўчатларини интенсив етиштириш, кўпайтириш, янги нав ва шакллари яратиш, интродукция қилиш, маданий плантацияларни ташкил этиш, ўрмон агротехник тадбирларини механизациялаш бўйича амалий тадқиқот натижалари ҳамда соҳадаги мавжуд муаммолар ва истиқболли режалар бўйича маълумотлар келтирилган.

Мазкур илмий мақолалар тўплами олий ва ўрта махсус ўқув юртлари учун қўлланма сифатида тавсия этилади.

Ташкилий-қўмита:

Арабов С.А- б.ф.ф.д
Рузметов У.И.- қ.х.ф.д.
Новицкий З.Б. - қ.х.ф.д.
Мамутов Б.Х.- қ.х.ф.ф.д.
Хўжаев О.Т. - қ.х.ф.н.
Мухсимов Н.П. - қ.х.ф.ф.д.
Юлдашев Ҳ.К. - қ.х.ф.ф.д.
Янгибаева И.З. - қ.х.ф.ф.д.

Таҳрир хайъати:

Кожаметов С.К - профессор
Кайимов А.- профессор
Новицкий З.Б.- қ.х.ф.д.
Рузметов У.И. - қ.х.ф.д.

Такризчилар:

Тўхтаев Бобокул Ёркулович – Тошкент давлат аграр университети “Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайн” факультети профессори.

Холмуротов Мансур Зарипбаевич – Тошкент давлат аграр университети “Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайн ” кафедраси мудири, қ.х.ф.ф.д.

Ушбу конференция мақолалар тўплами Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти Илмий Кенгашининг 2024 йил 10 октябрдаги №16-сонли мажлис баёнида тасдиқланган ва чоп этишга рухсат этилган

Мазкур мақолалар тўпламида чоп этилган ҳар бир мақоланинг мазмуни ва унда берилган материалларга мақола муаллифларининг шахсан ўзи жавобгар ҳисобланади.

© Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти 2024 йил

3. Termik usul: Uchinchi maydonda urug'larga termik skarifikatsiya qo'llanilgan. Bu usul urug'larning tabiiy himoya qobig'iga termik ta'sir ko'rsatib, uning nazoratli ravishda yoriqlar hosil qilishiga yordam bergan. Natijada, urug'larning 85% unuvchanligi qayd etildi va urug'lar o'zining dastlabki 1-sinf sifatini saqlab qolgan. Bu termik usul urug'larning yuqori unuvchanligini ta'minlab, urug'larning sifatini pasaytirmasdan, unuvchanligini optimallashtirganini ko'rsatadi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, oddiy usul urug'larning unuvchanligiga va ularning sifatini saqlab qolishga yetarli emas. Mexanik ishlov urug'larning unuvchanligini oshirgan bo'lsa ham, ularning sinfini pasaytirib, urug'ning sifatini kamaytiradi. Faqatgina termik skarifikatsiya urug'lar o'z sinfini saqlab qolishi bilan birga, unuvchanlikni maksimal darajada oshirishga erishgan. Shu sababli, termik usul urug'larni sifat jihatidan optimal ishlov berish usuli sifatida tavsiya etilishi mumkin. Virgin archasini urug'larini oddiy usulda va mexanik skarifikatsiy usulida urug'lar ustki qatlamiga ta'sir o'tkazib ekilganda ekin materiallari miqdori pasayishi bilan bir qatorda vaqtdan unumli foydalanish va iqtisodiy ijobiy samaradorligi keskin tushadi. Virgin archasini urug'larga termik skarifikatsiya ta'sir o'tkazilib ekilganda urug'larga namlikva havo etarli miqdorda taminlanib, unib chiqish energiyasi bir vaqtda bo'ladi hamda vaqtdan unumli foydalanish va iqtisodiy samaradorligi yuqori ko'rsatgichlarga erishiladi. Yuqorida keltirilgan tajribalardan kelib chiqib, Jomboy tumani iqlim sharoitida virgin archasini niholxonalarini barpo qilishda urug'larni termik skarifikatsiya usulida ekisni tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.А.А.Хоназаров Ўрмончилар учун кўлланма Тошкент “Меҳнат” 1992 йил.
2. Т.Н.Желтиков Ўрмон кўчатхонаси Тошкент 1962 йил.
- 3.Правила отбора образцов и методы определения посевных качеств семян ГОСТ-13056.6-75, ГОСТ -13056.7-78, ГОСТ -13056.8-68.
- 4.А.П Волкович Лесное семеноводство Минск-2014.

UDK 633.81

TUKSIZ SHIRINMIYA (GLYCYRRHIZA GLABRA L.) NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

O.G'. Xurramov asisstant

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Аннотация. В данной статье одной из важных биологических характеристик *Glycyrrhiza glabra L.* является биология семени, строение, размер, морфология семени, а также значение растения в жизни человека. Данные, полученные в результате исследования, были обработаны, даны соответствующие выводы и рекомендации.

Abstract. In this article, one of the important biological characteristics of *Glycyrrhiza glabra L.* is the biology of the seed, the structure, size, morphology of the seed, and the importance of the plant in human life. The data obtained as a result

of the research were processed, and appropriate conclusions and recommendations were made.

Kalit so'zlar: *Glycyrrhiza glabra L.*, urug', dukkak, ontogenez, faza, darivor, urug' biologiyasi.

Kirish. Respublikamiz florasidagi juda ko'p darivorlar o'simliklar orasida uchraydigan keksa yoshdagi o'simliklardan biri bu tuksiz shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra L.*) o'simligidir. Bu o'simlik qo'llaniladigan dorilar soni bo'yicha gulli o'simliklar orasida birinchi o'rinda turadi [1,2,3]. Bu o'simlik ishlab chiqarishning ko'plab sohalarida, og'ir va yengil sanoat tarmoqlarida, kosmetika, tibbiyotda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo'llanilmoqda. O'simlikning barglari va poyasidan chorva mollariga yem-xashak tayyorlashda foydalaniladi. Guli esa asal-shiraga boy bo'lganligi sababli asalarichilikda ham samarali foydalanilish mumkin. O'zbekistonda bu o'simlikni yetishtirish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan juda foyda keltiradi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda Tuksiz shirinmiya o'simligini urug' biologiyasini o'rganish, o'simlikni turli xil yo'llar bilan ko'paytirish usullarini aniqlash muhim ahamiyatga ega [5].

Tadqiqot uslubi. Sutkalik va mavsumiy gullash va urug' biologiyasini o'rganishda Ponomoryov metodikasidan foydalanildi, o'simlikning fitosenozda tutgan o'rni Drudening 6 ballik shkalasi yordamida aniqlandi, yer ustki hosildorligi Kushnikov metodikasi bilan o'rganildi. Olingan matematik ma'lumotlar Dospexov metodikasi yordamida hisoblandi [4].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Urug' yopiq urug'li o'simliklarning jinsiy ko'payishi natijasida urug'kurtak megasporangiydan hosil bo'ladi va ko'payish organi hisoblanadi. Ontogenez rivojlanishida urug' o'simlikning embrionlik davri hisoblanadi. Urug' asosan 1-2 qavat integument-urug'kurtak qobig'i-po'sti nusellyusni o'rab turuvchi po'st bilan qoplangan. U urug'langndan so'ng urug' po'stiga aylanadi. Urug' ichida murtak, endosperm yoki perisperm bo'ladi [3].

Biz 2022-yil davomida Oqdaryo va Urgut tumanlarida tuksiz shirinmiya o'simligining urug' biologiyasini o'rgandik. O'simlikning mevasi pishganda ochilmaydigan dukkak meva. Dukkakning tashqi tuzilishi to'q malla yoki qo'ng'ir rangda. Dukkakning sirtida siyrak va kalta tuklar joylashgan(1-rasm). Shakli yoysimon egilgan. Dukkakning uzunligi Oqdaryo tumani sharoitida 1.8 ± 0.16 sm. 2-6 urug'li. Har bir dukkakning ichidagi urug'lar soni o'rtacha 4.95 ± 0.34 ta. Bitta to'pguldan hosil bo'lgan dukkaklar soni 14.6 ± 1.52 ta. Urgut tumanida esa dukkagining uzunligi 1.73 ± 0.18 sm. Har bir dukkakning ichidagi urug'lar soni o'rtacha 4.77 ± 0.37 ta. Bitta to'pguldan hosil bo'lgan dukkaklar soni 13.8 ± 1.26 ta.



1-rasm. Tuksiz shirinmiyaning dukkalarining umumiy ko'rinishi.

O'simlikning urug'lari ko'kimtir, qoramtir-jigar rang. 1000 ta urug'ining massasi Oqdaryo tumani sharoitida o'rtacha 4.93 ± 0.41 gr. Urgut tumanida esa 4.56 ± 0.38 gr. O'simlikning urug'lari mayda yirikligiga ko'ra o'g'irlik jihatidan bir-biridan farq qiladi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

O'simlikning mevalash fazasi Oqdaryo tumani sharoitida 10-iyundan 5-avgustgacha, Urgut tumanida esa 2-iyundan 13-avgustgacha bo'lgan vaqt oralig'ida alaga oshdi. Mevalari gulpoyaning pastdan yuqorisiga qarab shakllanib bordi. Mevaning pishishi esa, Oqdaryo tumani sharoitida 28-iyuldan 30-sentabrgacha, Urgut tumanida esa 2-avgustdan 10-sentabrgacha davom etdi.

1-jadval

Tuksiz shirinmiya dukkagi va urug'larining miqdoriy ko'rsatkichlari (n=50).

Tuman		Oqdaryo	Urgut
1 tup o'simlikdagi dukaklar soni		14.6 ± 1.52	13.8 ± 1.26
1 ta dukkakning uzunligi (sm)		1.8 ± 0.16	1.73 ± 0.18
1 ta dukkdagi urug'lar soni		4.95 ± 0.34	4.77 ± 0.37
1000 ta urug'ning massasi (gr)	mayda	4.74 ± 0.38	4.21 ± 0.33
	o'rta	4.93 ± 0.41	4.56 ± 0.38
	yirik	5.31 ± 0.63	5.28 ± 0.61

O'simlikning mevasi pishish fazasida hali pishib yetilmagan mevalardan o'ziga xos hid ajralishi kuzatildi. Bu meva tarkibidagi kimyoviy moddalarning faolligi bilan bog'liq.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Tuksiz shirinmiya dukkagining uzunligi Oqdaryo tumani sharoitida 1.8 ± 0.16 sm, 2-6 urug'li. Har bir dukkakning ichidagi urug'lar soni o'rtacha 4.95 ± 0.34 ta. Bitta to'pguldan hosil bo'lgan dukkaklar soni 14.6 ± 1.52 ta. Urgut tumanida esa dukkagining uzunligi 1.73 ± 0.18 sm, har bir dukkakning ichidagi urug'lar soni o'rtacha 4.77 ± 0.37 ta. Bitta to'pguldan hosil bo'lgan dukkaklar soni 13.8 ± 1.26 tani tashkil etdi.

Tuksiz shirinmiyani yuqori hosil beradigan ko'p yillik, yem-xashak o'simligi hamda guli asal-shiraga boy bo'lganligi uchun olingan natijalarni